
Barcha hududlarda obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda

Ayni kunlarda shahrimizning barcha mahallalari, korxonalar va tashkilotlarda obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Albatta, hashar ishlari fuqarolarimizning faolligi va uyushqoqligida ko'tarinki ruhda o'tmoqda.

Bahor faslining kirib kelishi, yaqinlashib kelayotgan bayramlarni munosib nishonlashga tayyorgarlik ko'rish, mahallalar, aholi turar joylarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish kunning dolzarb masalasi bo'lmoqda.

Hashar ishlarida mahallalar, aholi punktlari, ko'p qavatli binolar va hovlilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlar hamda bolalar maydonchalari tartibga keltirilmoqda.

"Mahallamga mening tuhfam" shiori ostida barcha turar joy mavzolari, ko'chalar hamda korxonalar va tashkilotlarda gul ko'chatlari, mevali va manzarali daraxtlar ekilib, daraxtlar butalib oqlanmoqda.

Shahar hokimligi tomonidan hashar ishlariga yordam berish maqsadida obodonlashtirish boshqarmasi xodimlari va texnika vositalari ham jalb etilmoqda.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-01 23:20:22